BUXORO SHOIRLARI IJODIDA DARAXT OBRAZI BILAN BOG‘LIQ TALQINLAR

Ibragimova Gulshan Raimovna
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi
Tel:+998978308587

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhitida yetishib chiqqan zamonaviy shoirlar ijodida daraxt obrazining ifoda etilishi masalasi o'rganilgan. Ularning she'riyatida daraxt ramzining poetik tasviri, ma'no va funksiyalari tahlil qilingan. Daraxt obrazining milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy yuksalish g'oyalarini ifodalashdagi o'rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro shoirlari, daraxt obrazi, ramziylik, poetik tasvir, milliy qadriyatlar.*

Daraxt obrazi jahon xalqlari adabiyotida keng tarqalgan universal ramzlardan biridir. Turli xalqlar madaniyatida daraxt hayot, abadiylik, donishmandlik, avlodlar davomiyligi kabi ramziy ma'nolarga ega. O'zbek adabiyotida ham daraxt obrazi qadimdan an'anaviy poetik vosita sifatida qo'llanib kelgan. Ayniqsa, mumtoz she'riyatda sarv, chinor, tuba kabi daraxtlar obrazlari keng istifoda etilgan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham daraxt obrazi shoirlar tomonidan yangi ma'no va vazifalar bilan boyitilmoqda.

Buxoro adabiy muhiti o'ziga xos an'analarga ega bo'lib, bu yerda yetishib chiqqan shoirlar ijodida ham daraxt obrazining o'ziga xos keng talqinlarini kuzatish mumkin. Shu bois, ushbu maqolada Buxoro shoirlari she'riyatida daraxt obrazining ifodalanishi masalasini o'rganishni maqsad qilib, Samandar Vohidov, Sadriddin Salim Buxoriy, Toshpo'lat Ahmad, Bobur Bobomurod kabi Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodiga murojaat qildik. Jumladan, Sadriddin Salim Buxoriyning “Buxoroga Buxoro keldi” (1999), T.Ahmadning “Mehr daraxtim” (2015), Bali Bobomurodning “Essiz odamlar” (2013), S.Vohidovning “G'azallar” (2014) she'riy to'plamlarida daraxt obrazi qo‘llangan ash’orlari tahlilga tortildi [1; 2; 3; 4]. Shuningdek, N.Jumaxo'jayevning “Buxoro adabiy muhiti”, B.Sarimsoqovning “Badiiy obraz va uning talqini” kabi kitoblaridan foydalanildi [5; 6].

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, Buxoro shoirlari ijodida daraxt obrazi ko'p qo'llaniladigan poetik timsollardan biri hisoblanadi. Masalan, Samandar Vohidov g'azallarida daraxt obrazi mumtoz g‘azalchilik an’analariga moslab ko'proq an'anaviy ramziy ma'nolarda qo'llanilgan. Jumladan, sarv daraxti vositasida ma'shuqaning tik, go‘zal qaddi-qomati tasvirlanadi. [4] Bu esa mumtoz she'riyatdagi an'anaviy tashbehlardan biridir.

S.Vohidov “Qish lavhalari” nomli to‘rt bo‘limdan iborat she’rining deyarli bo‘limlarida qaysidir bir daraxt nomini tilga olib o‘tgan. Masalan, shoir shu she’rning birinchi bo‘limida qishning boshlanishi manzarasini so‘zlar orqali chizar ekan, “quvonchidan qora rang socha” boshlagan qarg‘alarning “teraklaru tollarga qora kafan kiydirishi” misralarini keltirgan. Ikkinchi bo‘limda esa adabiyotshunos olima Hilola Safarova Samandar Vohidov she’rlari asosida yozgan “Quyoshni – issiqni sog‘inish iztirobi” deb nomlangan maqolasida yozganidek, qishga archa va qayin munosabatlari fonida axloqiy baho berish yo‘lidan borilgan. “Qarang-a, qish qahridan yalang‘och qayin” archani qor yoqqan sayin yashnab borishini ko‘rib, “bahorni ham shu libosda kutib oldi, yozni ham shu kiyimda aldadi, endi qishga ham shu ko‘ylakda noz qilyapti” deb suyuqoyoqlikka chiqarib ta’na qiladi. O‘z navbatida, archa ham qayinga bahorga vafo qilmadi, bahor hadya etgan ko‘ylakni “izg‘iringa taroj qildirib”, oppoq badanini ko‘z-ko‘z qilib, “qish qo‘yniga yalang‘och kirgan” behayoga mengzaydi. Shu tariqa shoir archa timsolida go‘zalligini pesh qiluvchi tannoz qizlar va qayin timsolida yarim yalang‘och yurishni odat qilgan behayolarga sha’ma qiladi.

She’rning uchinchi bo‘limida qish hatto balxiy tutning panjalarini ham zirqiratgani, shu bois u isinib olish maqsadida quyoshga har qancha qo‘l cho‘zmasin, quyosh unga tund qaragani bayon etilgan.

Buxoroga qarashli Qorako‘l muzofotidan yetishib chiqqan iqtidorli shoir Tilak Jo‘ra “Ona niyati” nomli she’rida umri qaddi egik daraxtga o‘xshatgan:

Umr o‘xshar egik daraxtga,
Belin bukar buyuk bir sog‘inch!
Men hushimda o‘xshab karaxtga,
Tushlarimda yashayman notinch.

Buxoro qadimdan ilm-fan va adabiyot rivojlangan markazlardan biri bo'lib kelgan. Bu yerda yetishib chiqqan shoirlar ijodida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira mavzulari alohida o'rin tutadi. Shu bois, daraxt obrazi ham ko'pincha ana shu g'oyalarni ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladi. Masalan, Sadriddin Salim Buxoriyning “Buxoroga Buxoro keldi” turkumidagi she'rlarida keksa daraxtlar shaharning ming yillik tarixiga guvoh bo'lgan tirik jonzotlar sifatida tasvirlanadi. Ular o'tmishdan bugunga qadar yetib kelgan moddiy va ma'naviy merosni ramziy ifodalaydi. Shuningdek. shoir she'rlarida keksa chinorlar, tut daraxtlari obrazlari orqali tarixiy vorisiylik g'oyasi ilgari surilgan [1, 45].

Toshpo‘lat Ahmad ijodida daraxt obrazi ko'proq insoniy fazilatlar, ma'naviy yuksalish, ruhiy poklanish ramzi vazifasini bajaradi. Xususan, uning “Mehr daraxtim” she'rida daraxt insoniy mehr-muhabbat, sadoqat timsoli sifatida talqin etiladi. Unda shoir shunday satrlarni keltiradi:

Men nihol o'tkazdim entikib, titrab,
Qo'qonda – “Shoirlar xiyoboni”da.

Nazdimda, buyuklar turardi qarab,
Ketmon chopib turgan men – mehmoniga...
Men uni o‘tqazdim qo‘shib qalb qo‘rim,
Mehr daraxtimu, sog‘inch daraxtim.
U o‘sib, har kuni Ahmadiyman deb,
Ustozlarga salom bersa — shu baxtim! [2, 23].

Bu she'rda shoir o'zi ekkan niholni “mehr daraxtim” deb atayapti va daraxt obrazi vositasida insoniy mehr-muhabbat, ezgulik g'oyalarini ifoda etmoqda. Shoir daraxtni parvarish qilish orqali o'zida ham olijanob fazilatlarni kamol toptirishni ko‘zlaganini bildirmoqda.

Toshpo‘lat Ahmat yana bir to‘rtligida sabrni bardoshli daraxtga mengzagani kuztiladi:

Chekinma bo‘rondan, hovri so‘ngaydir,
Bog‘larga boz billur shabnam qo‘ngaydir.
Ayo, do‘st, toqat qil, sabrga suyan,
Bardoshli daraxtda oltin ungaydir.

Bali Bobomurod she'rlarida daraxt obrazi ko'pincha insoniy fazilatlarga qiyoslanadi. Uning “Uchmoqdaman” she'rida daraxt inson umrining turli bosqichlariga o'xshatilgan:

Talpinanganim bir umr
Qafassiz hayot edi,
Topmoylik qanot edi... [3]

Bu misralarda lirik qahramon o'zini qafasda o'sgan daraxtga o'xshatmoqda. U ozodlik, erkinlik sari intilmoqda. Demak, bunda daraxt obrazi insonning orzu-intilishlarini ramziy ifodalashga xizmat qilgan.

Ko‘rinyaptiki, har beshala shoir ijodida ham daraxt obrazi vatan, ona-yurt, mehr-muhabbat, sadoqat tuyg'ularini ifodalash uchun qo'llaniladi. Daraxt obrazi orqali shoirlar ko'pincha umr, hayot falsafasi haqidagi fikrlarini badiiy ifodalaydilar.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shoirlari ijodida daraxt obrazi muhim poetik vosita sifatida keng qo'llaniladi. Buxoro shoirlari ijodida daraxt obrazi an'anaviy ramziy ma'nolarni saqlab qolgan holda, yangi poetik vazifalar bilan boyitilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroga Buxoro keldi. – Toshkent: Sharq, 1999.
2. Ahmad T. Mehr daraxtim. – Buxoro: Buxoro, 2015.
3. Bobomurod B. Essiz odamlar. – Toshkent: Sharq, 2013.
4. Vohidov S. Xayoling men bilan (she’rlar, g‘azallar, muxammaslar, doston). – “Buxoro” nashriyoti, 1997. Yana: G'azallar. – Buxoro: Buxoro, 2014.
5. Jumaxo'jayev N. Buxoro adabiy muhiti. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Sarimsoqov B. Badiiy obraz va uning talqini. – Toshkent: Fan, 2004.

7. KOBILOVA, N. LITERARY PSYCHOLOGY AND THE PRINCIPLE OF THE EPIC IMAGE. https://media.neliti.com/media/publications/342765-literary-psychology-and-the-principle-of-1cb9cf8a.pdf
8. Hikmatovna, A. S. (2021, November). Mythical Helpers in English and Uzbek Fairy Tales. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 2, pp. 78-81).
9. Расулов, З. И. (2017). Особенности позиционными типологик ва лингво маданиятшунослик ўрни. 56. Илмиймақ https://scholar. google. com/citations n_for_view= BMFYYzIAAAAJ.
10. Расулов, З. И. (2010). Принцип материале английского языка 94.
11. Rakhmatova, M. M. (2017). Cross-cultural understanding of values in language. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, (1 (1)), 136-137. https://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1908/
12. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307